

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.13/30.12.2019.T.07.02. RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA  
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT  
SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

**ISMOILOVA GULNORA FAYZULLAYEVNA**

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MILLIY VALYUTA  
BARQARORLIGINI TA’MINLASHNI DAVLAT TOMONIDAN  
TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.16-Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent- 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**

**Content of the Doctoral (DSc) dissertation abstract**

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy valyuta barqarorligini ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....3

**Исмоилова Гулнора Файзуллаевна**

Совершенствование теоретико-методологических основ государственного регулирования обеспечения стабильности национальной валюты в условиях цифровой экономики.....35

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**

Improvement of theoretical and methodological basis of state regulation of ensuring the stability of the national currency in the conditions of the digital economy.....68

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....72

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.13/30.12.2019.T.07.02. RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA  
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT  
BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

**ISMOILOVA GULNORA FAYZULLAYEVNA**

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MILLIY VALYUTA  
BARQARORLIGINI TA’MINLASHNI DAVLAT TOMONIDAN  
TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.16-Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent- 2025**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/Iqt901 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tuit.uz](http://www.tuit.uz)) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslaxatchi:**

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Nurislom Tuxliev**  
iqtisodiyot fanlari doktori, akademik  
**Toshmatov Shuxrat Amanovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Nazarkulov Umidjan Rahimjanovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.13/30.12.2019.T.07.02 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil “18 oktyabr” soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shox ko‘chasi, 108 uy. Tel.: (99871) 238-64-15. e-mail: [info@tuit.uz](mailto:info@tuit.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№-373 raqami bilan ro‘yhatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shox ko‘chasi, 108 uy. Tel.: (99871) 238-64-15. e-mail: [info@tuit.uz](mailto:info@tuit.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 8 oktyabr kuni tarqatildi.  
(2025 yil 8 oktyabrda 6 raqamli reyestr bayonnomasi).

**Sh.Sh.To‘rayev**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**E.Sh.Nazirova**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash kotibi, t.f.d., professor

**Sh.Dj.Ergashxodjayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, i.f.d., professor

## Kirish (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarga asoslangan holda moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish, elektron to‘lovlar hajmi va elektron pullar ulushining oshib borish tendensiyasi tobora kuchayib bormoqda. “Jahon iqtisodiyotida global onlayn to‘lovlar bozori 2027 yilga 17 643 35 milliard. AQSh dollariga yetishi, yillik o‘sish sur‘ati (CAGR) 20,8% ni tashkil qilishi kutilmoqda”<sup>1</sup>. Bugungi kunda, jumladan raqamli moliyaviy institutlar faoliyatini tartibga solishning samarali mexanizmlari va sun‘iy intellekt asosida xavfli moliyaviy operatsiyalarni aniqlash bo‘yicha tizimlarini joriy etish hamda regulyatsiya va monitoring tizimini mustahkamlash dolzarb muammolar sifatida qaralmoqda.

Jahonda milliy valyuta barqarorligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan tadqiqotlar tarkibida raqamli texnologiyalar asosida milliy valyuta barqarorligi, elektron pullar va elektron to‘lov tizimlari muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada amalga oshirayotgan tadqiqotlarda, jumladan quyidagi yo‘nalishdagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda: moliyaviy xizmatlar, elektron to‘lovlarda mobil ilovalar va ularning iqtisodiy-huquqiy xavfsizligini ta‘minlashning iqtisodiy-texnologik mexanizmlarini takomillashtirish; raqamli texnologiyalar asosida naqd pullardan foydalanishni kamaytirishning samarali mexanizmlarini asoslash; naqd va elektron to‘lovlar muvozanati muammolari; raqamli texnologiya (vosita)larga ko‘ra milliy valyuta barqarorligini baholash mexanizmlarini takomillashtirish va samarali usullarni ishlab chiqish.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni raqamli texnologiyalar sharoitida samarali rivojlantirish, raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy valyuta barqarorligini ta‘minlashni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish kabi yo‘nalishlarda keng qamrovdli islohotlar amalga oshirilmoqda. “2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirish, ...pul-kredit, fiskal va tashqi savdo siyosatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish hamda tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish orqali 2030-yilga borib yillik inflyatsiyani 5-6 foiz darajasida ta‘minlash”<sup>2</sup> vazifalari belgilangan. Bu borada iqtisodiyotdagi pul miqdorini oqilona tarzda boshqarishi, kreditlar va stavkalar siyosati orqali inflyatsiya bosimini kamaytirish, raqamli iqtisodiyotga ko‘ra milliy valyuta barqarorligini ta‘minlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq.

---

<sup>1</sup> [eportlinker.com/market-report/Payments/517859/Payments?term=payments%20market&matchtype=p&loc\\_interest=&loc\\_physical=9211610&utm\\_group=standard&utm\\_term=payments%20market&utm\\_campaign=ppc&utm\\_source=google\\_ads&utm\\_medium=paid\\_ads&utm\\_content=transactionnel-1&gad\\_source=1&gclid=CjwKCAiAw5W-BhAhEiwApv4goH7qfgRS\\_MNyljCK6UHGhf7udabwM-1Q6RqqsJCWxyRZuzCpRg7XR0COU0QAvD\\_BwE](https://eportlinker.com/market-report/Payments/517859/Payments?term=payments%20market&matchtype=p&loc_interest=&loc_physical=9211610&utm_group=standard&utm_term=payments%20market&utm_campaign=ppc&utm_source=google_ads&utm_medium=paid_ads&utm_content=transactionnel-1&gad_source=1&gclid=CjwKCAiAw5W-BhAhEiwApv4goH7qfgRS_MNyljCK6UHGhf7udabwM-1Q6RqqsJCWxyRZuzCpRg7XR0COU0QAvD_BwE)

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi, 11.09.2023 yildagi PF-158-son Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2019 yil 8 noyabrdagi PF-5877-son “Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida”, 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son “2020 -2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”, 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son «Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832-son “O‘zbekiston Respublikasida Raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda tadqiqotga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.«Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi**<sup>3</sup>. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatlar valyutalari barqarorligini davlat tomonidan qullab-quvvatlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari jahonning, jumladan quyidagi yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari tomonidan amalga oshirilmoqda: Economic Development Institute, Harvard University, New York University, University of Chicago (AQSH), World bank, Oxford University, London school of Economics, Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD) (Fransiya), University of Vaseda (Yaponiya), Ludwig-Maximilians-Universität München (Germaniya); Moskva davlat universiteti, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot univer-siteti, Dog‘iston davlat universiteti (Rossiya); Prognozlash va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida (O‘zbekiston).

Jahonda valyuta barqarorligini ta‘minlash yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar asosida, jumladan quyidagi ilmiy natijalar olingan: milliy valyutaga asoslangan obligatsiyalar valyuta kursining barqarorligini oshirishga xizmat qilishi asoslangan (World Bank); rivojlanayotgan mamlakatlarda bank inqirozlari ehtimoli kam bo‘lishini, ammo inqiroz boshlaganda iqtisodiy oqibatlar — ya‘ni YaIM o‘sishiga zarar, juda katta bo‘lishi aniqlangan (World Bank); xalqaro moliyaviy tizim barqarorligi, valyuta kurs rejimi, kapital oqimlarni boshqarish va valyuta

---

<sup>3</sup> <https://ied.co.uk/>, <https://www.harvard.edu>, [www.nyu.edu](http://www.nyu.edu), <https://www.uchicago.edu>, [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org), [www.ox.ac.uk](http://www.ox.ac.uk), <http://www.leeds.ac.uk>, <https://www.lse.ac.uk>, <https://www.oecd.org/en.htm>, <https://www.waseda.jp>, [www.lmu.de/en](http://www.lmu.de/en), [www.wsu.ru](http://www.wsu.ru), <https://world.uz>, <http://tdiu.uz>, <https://tuit.uz>, dba.uz va boshqa manbalar asosida tayyorlangan

интервенсийлари, jumladan, valyuta siyosati bo'yicha IMF institutsional pozitsiyasini shakllantirishda muhim rolga egaligi asoslangan (IMF).

Jahonda raqamli texnologiyalarning shiddatli rivojlanib borishi sharoitida milliy valyuta barqarorligini ta'minlash va mazkur jarayonni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish borasidagi tadqiqotlarda, jumladan quyidagi yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarga ustuvor darajada e'tibor qaratilmoqda: xalqaro tashkilotlar IMF, BIS, MIT tomonidan valyutaga ishonchni saqlashda raqamli markaziy bank puli CBDC va milliy valyuta barqarorligini ta'minlash; UNCTAD va World Economic Forum – raqamli moliyani barqarorlik nuqtai nazaridan baholash bo'yicha tadqiqotlarga, raqamli asrda milliy davlat pulining barqarorligi va suverenligi faqat emissiya emas, balki regulyatsiya, ishonch va infratuzilmaga ham bog'liqligini tadqiq qilish; raqamli texnologiyalar sharoitida milliy valyuta barqarorligini ta'minlashning moliyaviy-iqtisodiy, texnologik va huquqiy asoslarini davlat tomonidan ta'minlash mexanizmlari va vositalarini ishlab chiqish (takomillashtirish); elektron pullar xavfsizligi va raqamli to'lovlar daxlsizligi va ularni himoyalashning samarali mexanizmlarini asoslash.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Pulning vujudga kelishi va uning rivojlanish bosqichlari, pul evolyusiyasi, elektron pullarning rivojlangishi va iqtisodiyotdagi o'rni ko'plab xorijiy va O'zbekiston olimlari tomonidan u yoki bu darajada o'rganilgan. Pul muomalasi muammolarini o'rganishga katta xissa qo'shgan xorijiy olimlar orasida Keyns D.M., Yum D.M., Knapp G.F., Koshevar D.V., Xarris L., Dollan E.DJ., Kempbell K.D., Kempbell R.DJ, Fisher I., Fridman M, Shaker I.Ye, Xiks Dj.R, Xayek Fm., Uerta de Soto Xesus<sup>4</sup> va boshqalarning ilmiy ishlarini keltirish lozim.

Mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida milliy valyuta barqarorligini ta'minlashda davlatning o'rni va uning iqtisodiyotga ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, MDH mamlakatlari olimlaridan Domnenko B.I., Miklashevskiy A.N., Usoskin V.M., Pshenichnikov V.V., Kroliveskoy L.<sup>5</sup>larning asarlari ham tadqiqotchilar tomonidan ochib berilgan.

---

<sup>4</sup>Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. Selected works.-M.: Economica, 1993, p.353., Hume, D. Experiments / D. Hume. – M., 1896., Knapp, G.F. Essays on the state theory of money. Money. Monetary system / G.F. Knapp. – Odessa, 1913. – 243 p., Koshevar, D.V. Money of the world. Coins and banknotes / D.V. Koshevar. – M.: AST, 2014. – 256 p., Harris L. Monetary theory. –M.: Progress, 1990, p.328. Dollan E.J., Campbell K.D., Campbell R.J. Money, banking and monetary policy. – Bishkek: Turan, 1996, p.254., I.Fisher. Purchasing power of money.-M.: NKF, 1925.-P.38 "Money and economic development" (Money and economic development, 1973). Shaker, I.E. The mechanism of circulation of electronic money. Theory and practice. Monograph Litagent Knorusc 6af03c1-2809-11e2-86b3-b737ee03444a 2015– ISBN: 978-5-4365-0221-2 [Electronic resource]. – Access mode., Hicks J.R. Value and capital, -M.: Progress, 1988.-p.43., Hayek F.A. Private money. –M.: 1996. –P. 27, 41, 81, 89., Huerta de Soto Jesus. Money, bank credit and economic cycles / translated from English. edited by A.V. Kuryaev. – Chelyabinsk: Socium, 2008. – 663 p.

<sup>5</sup>Домненко Б.И. Основы монетарной политики. –М.: ОПМТ РАГС, 1995, с.43., Миклашевский, А.Н. Деньги: опыт изучения основных положений экономической теории классической школы в связи с историей денежного вопроса / А.Н. Миклашевский. – М.: Университетская тип., 1895. – 729 с., Усоскин В.М. Теории денег. – М., 19976. –с-137., Пшеничников В.В. Эволюция форм и видов денег: от раковин каури до криптовалют: монография. – Воронеж: ФГБОУ ВО Воронежский ГАУ, 2019. – 175с., Пшеничников В.В. Выявление причин возникновения денег с позиций синкретной логики. // Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета. – 2017. – № 2 (104). – С. 17–22., Пшеничников В.В. Поиски и выбор альтернативных методологических основ исследования инновационного развития современной

Elektron pullar va uning rivojlanish bosqichlari ko'pgina olimlarning qarashlarida tadqiq qilingan. Milliy valyutaning nazariy va ilmiy jihatlarini tadqiq qilishda juda ko'p olimlarning asarlarini misol qilish mumkin. Bunga Sh.Abdullaeva, A.Vaxobov<sup>6</sup>lar katta hissa qo'shdilar. So'nggi yillarda zamonaviy iqtisodiyotda pul muomalasining nazariyasi va amaliyotiga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar paydo bo'la boshladi, Rasulov T.S., Boboqulov T.I., Jumaev N.X., Xoshimov E<sup>7</sup> va boshqalar shular jumlasidandir.

Biroq, yuqorida qayd qilingan olimlarning ilmiy ishlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy valyuta barqarorligini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash masalalari o'rganilmagan.

Shunga qaramay, olib borilayotgan izlanishlar ko'pincha iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillarida pul sohasidagi o'zgarishlarga asoslanadi. O'zbekiston pul-kredit tizimi mustaqillikning ilk bosqichlarida muhim ziddiyatlar va qiyinchiliklarga duch kelgan. Bu holat ayrim kamchiliklarning salmoqli yutuqlar soyasida qolib ketganini ko'rsatdi. Aniqlangan muammolar pul muomalasini chuqurroq izohlash va uni tartibga solishning aniq konsepsiyasini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Pul barqarorligini ta'minlash, inflyasiyani jilovlash va samarali pul-kredit siyosatini yuritish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu borada pul agregatlari, monetar siyosat, elektron to'lov tizimlari chuqur o'rganilmoqda. O'zbekiston tajribasidan kelib chiqib, o'tish davri iqtisodiyotining o'ziga xos jihatlarini aniqlandi. Ilmiy va amaliy ishlanmalar mamlakatdagi pul tizimi barqarorligining evolyutsion bosqichlarini aks ettiradi. Ushbu izlanishlar hozirgi iqtisodiy islohotlarga ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ayni sohada mualliflar va mutaxassislar bu jarayonga katta hissa qo'shgan. Ularning tadqiqotlari kelgusi ilmiy xulosalar va nazariy yechimlar uchun poydevor bo'lib qoladi. Pul muomalasi va barqarorlik masalalari bozor iqtisodiyotining shakllanish bosqichida alohida ahamiyatga ega edi. Elektron pullarning paydo bo'lishi bilan yangi yondashuvlar talab etilmoqda. Shuningdek, bu o'zgarishlar zamonaviy iqtisodiy siyosatning shakllanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Pul evolyusiyasi va elektron to'lovlarning iqtisodiyotdagi roli alohida ilmiy tahlilni talab qilmoqda.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti

---

экономики. // Выход из кризиса: развитие экономики и промышленности / под ред. д-ра экон. наук, проф. А.В. Бабкина. – СПб.: Изд-во Политехн. ун-та, 2016. – С. 59–75., Л.П.Кроливецкой. Деньги, кредит, банки. + Приложение: тесты: учебник / коллектив авторов; под ред.– М.: КНОРУС, 2019. – 414 с. Деньги, кредит, банки. Учебное пособие. Кроливецкая В.Э., Зайцева И.Г., Евдокимова Н.А. и др. – СПб.: СПбГЭУ, 2016. – 95 с. Ключников О.И., Молчанова О.А. Денежное хозяйство: история и закономерности. – СПб.: Изд-во СПбГУЭФ, 2009. – 156 с.

<sup>6</sup>Абдуллаева Ш.З. Халқаро валюта-кредит муносабатлари.-Тошкент «IQTISOD-MOLIYA», 2005.-588 Б., Вахобов А.В., Худякова Н.К. «Международные валютно-кредитные и финансовые отношения». I-часть.-Ташкент. НУУз, 2003.-276с.,

<sup>7</sup>Расулов Т.С. Валюта муносабатларининг назарий асослари.-Т.: «Молия», 2007.-316б., Бобоқулов Т.И. «Миллий валютанинг барқарорлигини таъминлаш: муаммолар ва ечимлар». –Т.: «Fan va texnologiya», 2007.-184б., Жумаев Н.Х. Ўзбекистонда валюта муносабатларини тартибга солиш методологиясини такомиллаштириш.- Т.: «Fan va texnologiya», 2007.-232б., Хошимов Э.А. «Ўзбекистон Республикасида валюта бозорини эркинлаштириш йўллари» номли иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган автореферати. 2009й.сентябр.

Toshkent axborot texnologiyalari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IL-77-8023102181 raqamli “Hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha yangi ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni qamrab olgan “Innovatsion g‘oyalar banki”ni yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy valyuta barqarorligini ta‘minlashni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

milliy valyutaning rivojlanishida davlat tomonidan tartibga solishning ahamiyati va zaruratini o‘rganish;

raqamlashtirish sharoitida milliy valyuta barqarorligini ta‘minlashning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq qilish;

raqamlashtirish sharoitida milliy valyuta barqarorligini ta‘minlashni davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy tajribasini o‘rganish;

zamonaviy iqtisodiyotda milliy valyuta barqarorligini davlat tomonidan tartibga solishning metodologik jihatlarini tadqiq qilish;

raqamli iqtisodiyotda elektron pullar rivojlanish bosqichlarining tadqiqot jarayonlarini tavsiflash;

iqtisodiyotni raqamlashtirishda elektron pullarni davlat tomonidan tartibga solishning ahamiyatini tadqiq qilish.

elektron pullar muomalasi hajmi oshishining infratuzilmani takomillashtirishga bevosita ta‘sirini tadqiq qilish;

raqamli iqtisodiyot sharoitida pul barqarorligi tahlili;

raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy valyutani davlat tomonidan tartibga solish metodologiyasini takomillashtirish.

**Tadqiqotning ob‘yektini** raqamli iqtisodiyot sharoitida O‘zbekistonda milliy valyuta barqarorligini ta‘minlashni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari, usullari va metodologik yondashuvlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** bo‘lib raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy valyuta barqarorligini ta‘minlashni davlat tomonidan tartibga solish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertasiyada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-matematik va ekonometrik modellashtirish, guruhlash, qiyosiy tahlil, tanlama kuzatuv, korrelyatsion va regression tahlil, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullar qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

aholi ixtiyorida mavjud pul mablag‘lari, muddatli depozitlar va elektron pullar ulushining o‘zgarishiga ko‘ra aholi mablag‘lari tarkibida talab qilib olgunga qadar bo‘lgan elektron pul shaklidagi depozitlar miqdorining oshib borish tendensiyasi asoslab berilgan;

aholining banklarda saqlanayotgan depozitlar tarkibida talab qilib olgunga qadar bo‘lgan depozit mablag‘larga ko‘ra aholining elektron pul shaklidagi talab qilib olgunga qadar depozitlari qoldig‘i oshib borishining istiqbol tendensiyasi va uning asosiy parametrlari asoslangan;

tijorat banklarida talab qilib olgunga qadar bo‘lgan depozitlar uchun moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda aholining bir oy muddatga saqlangan talab qilib olgunga qadar bo‘lgan depozit mablag‘lari qoldig‘iga foiz to‘lovlarini amalga oshirish taklifi asoslangan;

aholi ixtiyorida mavjud bo‘lgan elektron pullar daxlsizligi hamda xavfsizligini ta‘minlash maqsadida yuqori darajadagi himoya vositasiga ega bo‘lgan fuqarolar uchun ko‘pi bilan ikki dona multibank plastik (ish haqi yoki nafaqa va jismoniy shaxsning ixtiyoriy) kartalarini joriy etish taklif qilingan;

milliy valyuta barqarorligini ta‘minlashda davlatning o‘rni va raqamli texnologiyalar muhimligiga ko‘ra iqtisodiyotda elektron pullar aylanmasi, elektron pullar orqali hisob-kitob jarayonlariga ta‘sir etuvchi tashkiliy-iqtisodiy omillar darajasiga ko‘ra fast-payment modelining taklifi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

milliy valyuta barqarorligini ta‘minlashda davlatning faol va yetakchi roli muhimligiga ko‘ra moliyaviy xizmatlar xavfsizligini raqamli texnologiyalar asosida oshirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

aholining elektron pul shaklidagi depozitlari holati baholanib, elektron pul shaklidagi depozitlarini rag‘batlantirish bo‘yicha tavsiyalar asoslangan;

elektron pullarning xavfsizligi, raqamli to‘lovlar va elektron pullar himoyasi ta‘minlanishi yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqotda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarining statistik ma‘lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflardan milliy valyuta barqarorligini ta‘minlashda elektron pullar aylanmasini ta‘minlashning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga bag‘ishlangan maxsus, ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati ulardan mamlakatda milliy valyuta barqarorligini davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash, elektron pullar harakatini tartibga solish va uning iqtisodiyotga ta‘sirini tadqiq qilishda, elektron pullarning faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy valyuta barqarorligini ta‘minlashni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy-uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

aholi ixtiyoridagi mavjud pul mablag‘lari, muddatli depozitlar va elektron pullar ulushining o‘zgarishiga ko‘ra aholi mablag‘lari tarkibida talab qilib olgunga qadar bo‘lgan elektron pul shaklidagi depozitlar miqdorining oshib borish tendensiyasi bo‘yicha taklif “Mikrokreditbank” ATB va O‘zbekiston Respublikasi

Markaziy banki Toshkent shahar bosh boshqarmasi faoliyatiga joriy qilingan (“Mikrokreditbank” ATBning 2025 yil 12 fevraldagi 05-35/1289-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahar bosh boshqarmasining 2025 yil 12 fevraldagi 06-17/37 sonli ma’lumotnomalari). Taklif 2030 yilga borib aholining tijorat banklarida saqlayotgan talab qilib olgunga qadar bo‘lgan depozit mablag‘lari-ning ulushini 22 foizni tashkil qilishi va shunga ko‘ra qo‘shimcha resurs bazasini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

aholining banklarda saqlanayotgan depozitlar tarkibida talab qilib olgunga qadar bo‘lgan depozit mablag‘larga ko‘ra aholining elektron pul shaklidagi talab qilib olgunga qadar depozitlari qoldig‘i oshib borishining istiqbol tendensiyasi va uning asosiy parametrlari taklifi “Mikrokreditbank” ATB va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahar bosh boshqarmasi faoliyatiga joriy qilingan (“Mikrokreditbank” aksiyadorlik tijorat bankining 2025 yil 12 fevraldagi 05-35/1289-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahar bosh boshqarmasining 2025 yil 12 fevraldagi 06-17/37-sonli ma’lumotnomalari). Taklif 2030 yilga borib aholining tijorat banklaridagi elektron pul shaklidagi talab qilib olgunga qadar depozitlarining o‘rtacha yillik qoldig‘i 233623,97 mlrd.so‘m bo‘lishi hamda aholi tomonidan to‘lov terminallari orqali elektron pullar orqali to‘lov summalari yillik miqdori 825448,4 mlrd. so‘m bo‘lishi asoslangan holda tijorat banklari tomonidan qo‘shimcha ravishda to‘lov terminallari sonini ko‘paytirish zaruriyatini asoslashga muayyan darajada xizmat qilgan;

tijorat banklarida talab qilib olgunga qadar bo‘lgan depozitlar uchun moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda aholining bir oy muddatga saqlangan talab qilib olgunga qadar bo‘lgan depozit mablag‘lari qoldig‘iga foiz to‘lovlarini amalga oshirish taklifi “Mikrokreditbank” ATB va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahar bosh boshqarmasi faoliyatiga joriy qilingan (“Mikrokreditbank” aksiyadorlik tijorat bankining 2025 yil 12 fevraldagi 05-35/1289-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahar bosh boshqarmasining 2025 yil 12 fevraldagi 06-17/37 sonli ma’lumotnomalari). Mazkur taklif tijorat banklarida saqlanayotgan elektron pullar tarkibida talab qilib olgunga qadar bo‘lgan depozit mablag‘lariga 2030 yilga oyiga 2826,6 mlrd so‘m qo‘shimcha daromad olish imkoniyatlarini asoslashga muayyan darajada xizmat qilgan;

aholi ixtiyorida mavjud bo‘lgan elektron pullar daxlsizligi hamda xavfsizligini ta’minlash maqsadida yuqori darajadagi himoya vositasiga ega bo‘lgan fuqarolar uchun ko‘pi bilan ikki dona multibank plastik (ish haqi yoki nafaqa va jismoniy shaxsning ixtiyoriy) kartalarini joriy etish taklifi “Mikrokreditbank” ATB va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahar bosh boshqarmasi faoliyatiga joriy qilingan (“Mikrokreditbank” aksiyadorlik tijorat bankining 2025 yil 12 fevraldagi 05-35/1289-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahar bosh boshqarmasining 2025 yil 12 fevraldagi 06-17/37 sonli ma’lumotnomalari). Taklif aholi ixtiyoridagi turli banklarga tegishli bo‘lgan har xil turdagi plastik kartalar sonini optimallashtirish hamda elektron pullar orqali amalga oshiriladigan shubhali bank operatsiyalar soni va miqdorini kamaytirilishi asoslangan va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025 yil 25 fevraldagi

5/12-son "O'zbekiston Respublikasi hududida bank kartalarining chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari to'g'risidagi nizomning 19-bandiga qo'shimcha kiritish haqida"gi qarorini ta'minlashga muayyan darajada xizmat qilgan;

milliy valyuta barqarorligini ta'minlashda davlatning o'rni va raqamli texnologiyalar muhimligiga ko'ra iqtisodiyotda elektron pullar aylanmasi, elektron pullar orqali hisob-kitob jarayonlariga ta'sir etuvchi tashkiliy-iqtisodiy omillar darajasiga ko'ra fast-peyment tizimining modeli bo'yicha taklifi "Mikrokreditbank" ATB va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahar bosh boshqarmasi faoliyatiga joriy qilingan ("Mikrokreditbank" aksiyadorlik tijorat bankining 2025 yil 12 fevraldagi 05-35/1289-sonli, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahar bosh boshqarmasining 2025 yil 12 fevraldagi 06-17/37 sonli ma'lumotnomalari). Ushbu taklifga ko'ra maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida elektron to'lovlar hajmining 30 foizga oshirilishiga muayyan darajada xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosida ilmiy va amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish, jumladan 2 ta monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan xorijiy ilmiy jurnallarda 4 ta, milliy jurnallarda 14 ta ilmiy maqolalar chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 220 betni tashkil etadi.

## **DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingin natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy valyutaning evolyutsion bosqichlari va uni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida pulning nazariy asoslari va uni o'rganish metodologiyalari keltirilgan bo'lib, pulning paydo bo'lish tarixi, olimlarning tadqiqotlari, uning rivojlanish evolyusiyasi va unga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilingan.

Shuningdek, ko'pgina iqtisodchilar tomonidan pulga berilgan turlicha ta'riflar o'rganilgan. Shuni alohida aytib o'tish kerakki, ushbu ta'riflarning barchasida pulning mohiyati emas, balki pulning iqtisodiyotdagi roli muhimligi ta'kidlab o'tilgan. Natijada, ko'plab xorijiy iqtisodchi olimlar "zamonaviy pul" tushunchasiga unchalik katta ahamiyat bermaganlar.

Masalan, pul nazariyasining rivojlanishiga amerikalik iqtisodchi M.Fridman katta hissa qo‘shdi. U M.Keyns nazariyasini tanqid qildi va monetarizm deb atalgan boshqa qarashlar tizimini taklif qildi.

Quyidagi jadvalda pulni tadqiq qilgan ilmiy maktablarning nomoyondalari o‘rganilgan.

### 1-jadval

#### Pul va uning kelib chiqishini tadqiq qilgan ilmiy maktablar<sup>8</sup>

№	Maktablar	Ishtirokchilar	Ilmiy qarashlar
1	Chikago ilmiy maktabining paydo bo‘lishiga qadar bo‘lgan davr: <i>So‘zli Chikago maktabi</i>	Xenri Simon, Loyd Mints, Paul Duglas, Aron Direktor va Jakob Viner	Bu olimlar o‘z qarashlarini yozma – ilmiy shaklda bayon qilmaganligi uchun <i>So‘zli Chikago maktabi</i> deya nom olgan
2	Monetarizm maktabi	Anna Shvars, Flipp Kogan, Richard Seyldan	M.Fridman boshchilik qilgan va mashhur iqtisodchilarni o‘z ichiga olgan
3	Postmonetarizm maktabi.	Karl Bryuner va Alan Meltzer kabi	ba‘zi fikrlari bilan M.Fridmandan ajralib turgan
4	«Rasional taxminlar nazariyasi» maktabidir.	Tom Mut, Robert Lukas, Tomas Sarjent, Robert Barro, Brayn Kantor va Stenli Fisher	1970 yillarda paydo bo‘lib, 1980 yillardan buyon mashhur bo‘lgan

Adabiyotlarda aytilishicha, pul insoniyatning birinchi ixtirolaridan biridir. Insoniyat sivilizatsiyasi davomida pul uzoq o‘zgarish yo‘lini bosib o‘tdi.

Pul evolyusiyasi iqtisodiy rivojlanish, texnologiyalar, va global integratsiyaning natijasi sifatida doimiy ravishda o‘zgarib borgan. Pulning yangi shakllari iqtisodiy tizimning talablariga mos ravishda takomillashgan va ularning har biri o‘z davrida iqtisodiy tizimning barqaror ishlashini ta‘minlashga xizmat qilgan. Shu o‘rinda milliy valyuta, pulni tadqiq qilgan olimlarning ilmiy ishlarini ko‘rib o‘tamiz.

T.S.Rasulovning “Valyuta munosabatlarining nazariy asoslari” nomli monografiyasida valyuta munosabatlari rivojlanishining nazariy asoslari, valyuta bozorlarining rivojlanishi, valyuta kursiga bag‘ishlangan ilmiy konsepsiyalar, valyuta va pul bozorlarida operatsiyalarni amalga oshirish mexanizmi, valyuta munosabatlariga ta’sir qiluvchi institutsional omillar kabi masalalar qamrab olgan.<sup>9</sup>

T.I.Boboqulovning “Milliy valyutaning barqarorligini ta‘minlash: muammolar va yechimlar” nomli monografiyasida valyuta kursining nazariy asoslari, uning barqarorligini ta‘minlashning uslubiy konseptual asoslarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.<sup>10</sup>

N.X.Jumaevning “O‘zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solish metodologiyasini takomillashtirish” nomli monografiyasida valyuta

<sup>8</sup> Ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida muallif ishlanmasi

<sup>9</sup> Rasulov T.C. Валюта муносабатларининг назарий асослари.-Т.: «Молия», 2007.-316б.

<sup>10</sup> Бобоқулов Т.И. «Миллий валютанинг барқарорлигини таъминлаш: муаммолар ва ечимлар». –Т.: «Fan va texnologiya», 2007.-184б.

munosabatlarini tartibga solish metodologiyasi va uning konseptual asoslarini takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan.<sup>11</sup>

E.A.Xoshimovning “O‘zbekiston Respublikasida valyuta bozorini erkinlashtirish yo‘llari” nomli iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan avtoreferatida so‘mning almashuv kursi va uning harakatini tashqi savdo balansiga korrelatsion bog‘liqlik tomondan o‘rgangan.<sup>12</sup>

Yuqorida qayd qilingan ilmiy ishlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida pul muomalasi barqarorligini ta‘minlashda davlat tomonidan tartibga solish masalalari o‘rganilmagan.

Shunga qaramay, mazkur izlanishlar ko‘p jihatdan iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillarida pul sohasining dinamik rivojlanishini aks ettiradigan materillarga asoslanadi. Pul-kredit sohasida mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston duch kelgan ziddiyatlar va qiyinchiliklar shunday kamchiliklarni ko‘rsatib berdiki, ular salmoqli yutuqlar ostiga yashiringan edi. Shu bilan bog‘liq holda aniqlangan muammolar o‘tish davri iqtisodiyoti pul muomalasining xususiyatlarini chuqurroq izohlash, uni tartibga solishning maqsadli konsepsiyasini ishlab chiqishni talab qiladi. Shu bilan birgalikda, ular tomonidan pul barqarorligining ta‘minlanishi, inflyatsiyani jilovlash muammolari, pul-kredit siyosatini olib borish, pul agregatlari, monetar siyosat kabi masalalar o‘rganilgan va o‘rganilib borilmoqda.

Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan va yana keltirish mumkin bo‘lgan mualliflar, mutaxassislarning aynan shu soha ilmiga va amaliyotiga qo‘shgan hissalar bundan keyingi ilmiy umumlashmalar va nazariy xulosalar ishlab chiqarish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu olimlarning muammoga bevosita aloqador bo‘lgan ilmiy ishlari O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishining dastlabki davrlariga taalluqli bo‘lib, pul muomalasi barqarorligi islohatlar davrining hozirgi davriga xos xususiyatlarini ochib berish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertasiyaning **“Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy valyuta barqarorligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning elektron pullar rivojlanishiga ta‘siri”** deb nomlangan ikkinchi bobida milliy valyutaning barqarorligini ta‘minlashda elektron pullarning ta‘siri va iqtisodiy ahamiyati tahlil qilingan. Ma‘lumki, mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va aholining turmush darajasi ko‘rsatkichi sifatida milliy valyutaning barqarorligi va to‘lov qobiliyati muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda elektron pullarning harakati va rivojlanishi milliy valyutani takomillashtirishda sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Elektron pullar orqali tezkor va xavfsiz to‘lovlar amalga oshirilishi, naqd pul aylanishining kamayishi va moliya bozorining rivojlanishi milliy valyutaning barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, elektron pullar tizimi orqali xalqaro to‘lov tizimlariga integratsiya qilish va elektron tijoratni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Biroq, tizim xavfsizligini ta‘minlash uchun qat‘iy choralar ko‘rilish zarur.

---


<sup>11</sup> Жумаев Н.Х. Ўзбекистонда валюта муносабатларини тартибга солиш методологиясини такомиллаштириш. - Т.: «Fan va texnologiya», 2007.-232б.

<sup>12</sup>Хошимов Э.А.“Ўзбекистон Республикасида валюта бозорини эркинлаштириш йўллари” номли иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган автореферати. 2009й.сентябр.

Zamonaviy sharoitda umumbashariy ekvivalentning moddiy tashuvchilari ifodalangan pulning ayrim shakllari va turlarini rivojlantirish va ulardan foydalanishning quyidagi tendensiyalarini aniqlash mumkin:

Birinchidan, dunyoning ko'pgina mamlakatlari muomaladagi naqd pullardan foydalanishdan butunlay voz kechmasa, hech bo'lmaganda ulardan foydalanish hajmi va ko'lamini minimal darajaga tushirishga harakat qila boshladi.

Ikkinchidan, yangi texnologik echimlar ta'sirida an'anaviy ravishda naqd pul ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan metall va qog'oz polimer materiallar bilan almashtiriladi.



**2-rasm. Dunyo bo'yicha naqd pulsiz muomala qiluvchi aholining ulushi va elektron to'lovlarning o'sishi<sup>13</sup>.**

Masalan, muomaladagi dollar va evroning qiymati 2005 yildan beri ikki barobarga oshib, mos ravishda 1,48 trillion dollar va 1,1 trillion evroga etdi. Ushbu o'sishning bir qismi xorijiy mamlakatlarda ushbu valyutalarga bo'lgan talab bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ammo evropaliklar va amerikaliklar hali ham naqd pullarni ushlab turishlari haqida ko'plab dalillar mavjud. Xulosa shuki, barcha mamlakatdagi iste'molchilar boshqa to'lov usullaridan ko'ra ko'proq naqd puldan foydalanadilar. Naqd pul AQShda ham xuddi shunday mashhur bo'lib, u erda barcha tranzaksiyalarning 46%, debet kartalari uchun 26% va kredit kartalari uchun 19% ishlatiladi. Ushbu fikrlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xalqaro savdo va iqtisodiy harakatlarda elektron to'lovlar tizimi jadal rivojlanishiga qaramasdan, naqd pul hali ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Iqtisodiy o'zgarishlar va inqirozli davrlar pul muomalasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda O'zbekistonda pul tizimi rivojlanish bosqichlarini va uning o'zgarish jarayonlarini<sup>14</sup> tahlil qilamiz. O'zbekistonda pul tizimi va milliy valyutaga bo'lgan e'tibor 1990-yillardan boshlandi. Mamlakatning mustaqil bo'lishi davlat

<sup>13</sup> Statistika ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

<sup>14</sup> Ismoilova G.F. "O'zgarishlarni boshqarish", Darslik. 2025 yil.

puli bo'lishini taqozo etsada, o'tish davri muammolariga qarshi ishlab chiqilgan chora-tadbirlar natijasida 1994 yil 1 iyulda davlatning milliy valyutasi qabul qilindi.

Hozirgi kunda, O'zbekiston iqtisodiyotida raqamlashtirish yo'lida sezilarli o'zgarishlar qilinmoqda. Elektron to'lov tizimlari, plastik kartalar va mobil to'lovlar ommalashmoqda. Bular nafaqat iste'molchilar uchun qulaylik yaratmoqda, balki tadbirkorlar uchun ham yanada samarali ishlash imkoniyatlarini yaratmoqda.

Dissertasiyaning **“Raqamli iqtisodiyot sharoitida pul agregatlari tarkibi va unga ta'sir qiluvchi omillar tahlili”** nomli uchinchi bobida raqamli iqtisodiyot sharoitida pul massasi va uni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy ahamiyati tahlil qilingan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida pul massasi va uning davlat tomonidan tartibga solinishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda, moliya tizimining ishonchliligini oshirishda va innovatsion rivojlanishni rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Raqamlashtirish jarayonlari, elektron pullarning kengayishi pul massasi dinamikasiga ta'sir ko'rsatadi, bu esa pul-kredit siyosatini moslashtirishni talab etadi.

**2-jadval.**

**Raqamli iqtisodiyot sharoitida pul massasi va uning davlat tomonidan tartibga solinishi<sup>15</sup>**

<b>Raqamli iqtisodiyotda pul massasining iqtisodiy ahamiyati:</b>	<b>Pul massasini tartibga solishda davlatning roli:</b>
1. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash: Pul massasi hajmi inflyatsiya va milliy valyutaning qadrsizlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Raqamlashtirish valyuta ayirboshlash	1. Inflyatsiya va deflyatsiyani nazorat qilish: Markaziy banklar pul massasini boshqarish orqali narxlar barqarorligini ta'minlaydi, inflyatsiya yoki deflyatsiyaning oldini oladi.
2. Investitsion faollik va iste'mol talabini shakllantirish: Pul massasi investitsion faollik va iste'mol talabiga ta'sir qiladi, bu esa mamlakatning umumiy moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi.	2. Moliyaviy tizimga ishonchni oshirish: Tartibga solish bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi, bu esa naqd pulsiz to'lovlar va elektron pullarning keng tarqalishini qo'llab-quvvatlaydi.
3. Pulning tabiati evolyutsiyasi: Raqamli iqtisodiyot pulning iqtisodiy mohiyatini o'zgartirmoqda, yangi shakllar paydo bo'lmoqda, bu esa ularning hisobga olinishi va tartibga solinishiga yangicha yondashuvni talab qiladi.	3. Raqamli moliyaviy vositalarga moslashuv: Davlatlar elektron pullar va boshqa raqamli aktivlar bilan ishlash uchun normativ-huquqiy bazani ishlab chiqmoqda.

Shunday qilib, raqamli iqtisodiyot sharoitida pul massasini davlat tomonidan samarali tartibga solish moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, iste'molchilarni himoya qilish va moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi.


Ma'lumki, pulning tarkibi — bu iqtisodiyotdagi pulning turli shakllarini anglatadi. Pul massasi turli darajalarga bo'lingan bo'lib, ularning har biri ayrim talablarga javob beradi. Bu tarkibning shakllari M0, M1, M2 va M3 orqali

<sup>15</sup> muallif ishlanmasi

ifodalanadi. Elektron pullar ushbu pul massalarining ba’zilarida to’liq ishtirok etadi, ayniqsa, ularning M1 va M2 kategoriyalarida ishtirok etishlari muhimdir.

Yuqorida aytib o’tganimizdek, elektron pullar asosan M1 kategoriyasida ishtirok etadi. Bunga mobil to’lovlar, elektron kartalar (misol uchun, Visa, Mastercard, Click, Payme va boshq.), onlayn to’lovlar, elektron o’tkazmalar va boshqa elektron to’lov tizimlari kirib, foizsiz yoki kichik komissiyalar bilan tez va oson to’lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. M2 — Bu pul massasiga M1 dan tashqari, muomalaga qo’yilgan depozitlar va kamdan-kam pullar kiritiladi. M2, shuningdek, ko’p omonatlar va depozit hisoblari, jumladan, katta omonat hisoblari va pulga tez kirish imkoniyati bo’lgan depozitlardan tashkil topgan. M2 kategoriyasining bir qismi sifatida elektron pullar ham bo’lishi mumkin. Elektron pullar joriy hisob-kitoblar va omonatlar bilan bog’liq bo’lsa, ular pulning yoki depozitlarning oson va tez omonatlar, to’lovlar va jadal pul muomalasini ta’minlaydi. M3 tarkibida elektron pullarni aniq ko’rib bo’lmaydi chunki, bu pullar, odatda, tezkor va jiddiy hisoblardan va depozitlardan farq qiladi.

Tadqiqotlarda elektron pullar va ularning pul massasidagi ishtiroki muhim omil sifatida qaraladi. Statistik ma’lumotlarga ko’ra 2013 yildan 2024 yilgacha bo’lgan davrda M0, M1 va M2 pul massalarining o’sish dinamikasini ko’rish mumkin.



**3-rasm. 2013-2024 yillarda pul agregatlaridagi o’zgarishlar<sup>16</sup>**

Rasmda ko’rsatilishicha, M0 (naqd pul): 2013 yildan 2024 yilgacha 6 526 milliard so’mdan 43 003 milliard so’mgacha o’sgan, bu yiliga o’rtacha 14,7% o’sishni anglatadi. M1 2013 yildan 2024 yilgacha 13 702 milliard so’mdan 85 382 milliard

<sup>16</sup> Keng ma’nodagi pul massasi (M2) Xalqaro valyuta jamg’armasining “Pul-kredit va moliyaviy statistikani shakllantirish qo’llanmasi” (PMSShQ 2016) konsepsiya va tasniflariga muvofiq Markaziy bank va boshqa depozit tashkilotlarining (tijorat banklari) majburiyatlari ma’lumotlari asosida hisoblangan. M2 o’z ichiga muomaladagi naqd pullarni (bank tizimidan tashqaridagi) hamda boshqa moliyaviy tashkilotlar, davlat nomoliyaviy tashkilotlar, xususiy sektor hamda uy xo’jaliklarining (aholi) milliy valyutadagi va chet el valyutasidagi talab qilib olinguncha, jamg’arma va muddatli depozitlarini oladi (PMSShQ 2016 muvofiq pul massasi tarkibiga kiritilmaydigan depozitlardan tashqari). Tor ma’nodagi pul massasi (M1) o’z ichiga muomaladagi naqd pullar va milliy valyutadagi talab qilib olinguncha depozitlarni oladi.

so'ngacha o'sgan, bu yiliga o'rtacha 17,2% o'sishni ko'rsatadi. M2 2013 yildan 2024 yilgacha 26 242 milliard so'mdan 210 990 milliard so'ngacha o'sgan, bu yiliga o'rtacha 22,5% o'sishni bildiradi. Tahlilarga ko'ra bu davrda eng katta ko'rsatkich M2 ga to'g'ri kelmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, pul massasining o'sishi iqtisodiy faollik, inflyatsiya darajasi va markaziy bankning pul-kredit siyosatiga bog'liq. M2 pul massasining sezilarli o'sishi iqtisodiyotda pul miqdorining ortishini va ehtimol inflyatsiya bosimini ko'rsatishi mumkin. Biroq, bu ko'rsatkichlarni to'liq tahlil qilish uchun qo'shimcha iqtisodiy ma'lumotlar, jumladan, yalpi ichki mahsulot (YaIM), iste'mol narxlari indeksi (INR) va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ham hisobga olish zarur.

Statistik ma'lumotlarga asoslanib, 2017-2024 yillarda aholining tijorat banklarida mavjud jami mablag'lari, jumladan elektron pullarining o'sish dinamikasini tahlil qilamiz. (4-rasm). Ma'lumotlarga ko'ra, 2017 yilda aholi mablag'larida elektron pullarning ulushi 20 459 mlrd.ni tashkil qilgan bo'lsa 2022 yilda 99 169 mlrd.ni 2024 yilning 1 iyunida 90 424 mlrdni tashkil qildi.



**4-rasm. 2017-2024 yillarda aholining tijorat banklarida mavjud jami mablag'lari, jumladan elektron pullari o'sish dinamikasi<sup>17</sup>**

2017-2024 yillarda aholining tijorat banklarida mavjud jami mablag'lari, masalan, 2017 yilda 37 183 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024 yil 1 iyul ma'lumotlariga ko'ra 295 948 mlrd.so'mni tashkil qildi. Bu esa o'tgan 7 yil davomida 8 barabar oshganligini ko'rsatmoqda. Aholining banklardagi mablag'larining elektron pul shaklidagi muomalasi 2017 yilda 55% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2024 yilning yarmiga kelib 30,5%ni tashkil qilgan va ulush kamaygan. Yuqorida aytib o'tilganidek, bu ko'rsatkich aholining banklardagi mablag'lari 2024 yilda 2017 yilga nisbatan 8 baravarga ortganligini ko'rsatgan bo'lsada, elektron pul hajmi faqatgina 4,4 baravarga ortgan xolos.

Aholi qo'lidagi plastik kartalar asosan debit kartalar bo'lib, bugungi kunga qadar kredit kartalar muomalasi ommalashmadi. Qolaversa, hududlarda elektron to'lovlar tizimining faollik darajasi o'ta past. Buning asosiy sababi aholining tashqi


<sup>17</sup> Statistik ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

kiberxavfsizlik hujumlardan himoyalaniş tizimining samarasizligi, aholining bank savodxonlik darajasining pastligi, infratuzilma va boshqalar. Buning asosiy sabablarini quyidagilar deb ham ko'rsatish mumkin:

Birinchiidan, elektron pullar ko'pincha maxsus maqsadlarda ishlatish uchun mo'ljallangan bo'lib, agar aholi ularning bir qismini depozitlarga o'tkazgan bo'lsa, bu holat ulushning kamayishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchiidan, elektron pullar onlayn to'lovlar, savdo va xizmatlar uchun ishlatiladi va aholi ularni tez-tez sarf qilgan holda, pullar balanslari kamayishi mumkin. Shuningdek, aholining elektron pullarga bo'lgan ishonchi oshishi, ularning ko'proq depozitlarda saqlanishiga sabab bo'lib, bu holat ham ulushning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shuningdek, davlatning moliyaviy siyosati ham elektron pullarga ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, elektron pullar ulushining kamayishiga turli omillar, jumladan, pulning depozitlarga o'tkazilishi, sarf-xarajatlar ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.




### **5-rasm. 2017-2024 yillarda aholining tijorat banklarida mavjud jami mablag'larida muddatli depozitlar ulushi dinamikasi, foiz<sup>18</sup>**

Yuqoridagi rasmda aholi mablag'laridagi muddatli depozitlar tahlil qilingan.

Masalan, 2017-2024 yillarda aholining tijorat banklarida mavjud jami mablag'larida muddatli depozitlar ulushi 2017 yilda 44,98%ni tashkil qilgan bo'lsa, 2024 yilda ushbu ko'rsatkich 69,45%ni tashkil qilgan. Qolaversa, aholi mablag'larida muddatli depozitlarning miqdori 2024 yilda 2017 yilga nisbatan 1,5 baravarga oshgan xolos. Aholining tijorat banklarida mavjud jami mablag'larida esa 8 baravarga ortganligini hisobga olsak, aholining daromad olish maqsadida tijorat banklaridagi mablag'larida ulushi kamaygan.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida 2004-2024 yillardagi aholining mavjud plastik kartalar soni dinamikasi tahlil qilindi.

<sup>18</sup> Statistika ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi




**6-rasm. 2004-2024 yillarda aholida mavjud plastik kartalar soni va 100 kishiga to'g'ri keladigan plastik kartalar soni dinamikasi<sup>19</sup>**

Dastlabki yillarda plastik kartalarni aholi tomonidan “qabul” qilish jarayonlari ham ma’lum bir vaqtni talab etdi desak mubolag’a bo‘lmaydi. Bundan tashqari, plastik kartalardan foydalanishda terminallarning etishmasligi, mablag‘ni “naqd”lashtirishdagi muammolar ham plastik kartalarga bo‘lgan talabning yo‘qligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Ammo, yaratilgan infratuzilma plastik kartalar ulushining oshib borishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Masalan 6-rasmdagi tahlilarga ko‘ra 2004 yilda aholidagi plastik kartalar soni 429 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich 53516 mingtaga etdi. Bu davrdagi ko‘rsatkichlarni bir nechta omillar bilan izohlash mumkin. Internet va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, onlayn savdolar va mobil bank xizmatlarining keng tarqalishi plastik kartalarga bo‘lgan talabni jadal oshirdi. Shuningdek, banklar va moliyaviy tashkilotlar plastik kartalardan foydalanishni osonlashtirishda, shuningdek, ularga xizmat ko‘rsatishni ommalashtirishda aholiga qulayliklar yaratdi. Banklar axborotlar uzatish orqali zamonaviy to‘lov tizimlariga o‘tishni rag‘batlantirdi, natijada, bu ham plastik kartalarning ommalashishiga sabab bo‘ldi. Iqtisodiy rivojlanish va aholining daromadlari oshgani bilan, ko‘pchilik aholi plastik kartalarni nafaqat to‘lov uchun, balki ularni saqlash vositasi sifatida ham foydalanishni boshladilar. Natijada, 2004 yildan 2024 yilgacha bo‘lgan davrda aholidagi plastik kartalar soni taxminan 128 marotaba o‘tdi.

Shuningdek, 2004 va 2024 yillarda O‘zbekiston aholisiga to‘g‘ri kelgan plastik kartalar sonini tahlil qilish uchun, har 100 aholiga to‘g‘ri kelgan kartalar sonining o‘shish dinamikasiga e’tibor qaratish lozim. Masalan, 2004 yilda har 100 aholiga 1,6 dona plastik karta to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich 146,1 donaga etgan. Bu ma’lumotlarga asosan, 2004 yildan 2024 yilgacha bo‘lgan 20 yil ichida har 100 aholiga to‘g‘ri kelgan plastik kartalar sonining o‘shishi 451,56% ni tashkil qilmoqda. Shuningdek, 2024 yilda O‘zbekistonda muomaladagi bank kartalarining umumiy soni 54,9 milliontaga etgani ma’lum. Bu aholi sonining o‘shishiga qaraganda, har bir fuqaroga o‘rtacha 1,5 donadan to‘g‘ri keladi. Bu raqamlar

<sup>19</sup> Statistika ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi


mamlakatdagi bank kartalarining keng tarqalganligini va aholining moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan qiziqishining oshganligini ko‘rsatadi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, bu jarayonga terminallarning oshishi ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda.



**7-rasm. 2004-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasida mavjud to‘lov terminallari soni dinamikasi<sup>20</sup> (dona)**

Yuqoridagi rasmda mavjud to‘lov terminallari soni va elektron pullar orqali amalga oshirilgan to‘lovlar tahlil qilingan. O‘zbekistonda 2004-2024 yillar oralig‘ida to‘lov terminallari sonining oshishi - bu, mamlakatdagi iqtisodiy rivojlanish va raqamli transformasiyaning muhim ko‘rsatkichi deb hisoblanadi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra 2004 yilda 11,187ta to‘lov terminali mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2020 yilda 438 410 taga 2024 yilda bu ko‘rsatkich 426,255 taga yetganligini aytish mumkin. 2004-2024 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida elektron pul orqali amalga oshirilgan to‘lovlarning dinamikasi juda katta o‘shishni ko‘rsatmoqda. 2004 yilda bu ko‘rsatkich 37 milliard so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich 326,735 milliard so‘mga yetgan. Bu raqamlarning ortishi elektron to‘lovlar tizimining rivojlanishini va mamlakatda raqamli iqtisodiyotning o‘shishini aks ettiradi. Shuningdek, tadqiqotimizda 2004-2024 yillar orasida O‘zbekiston Respublikasidagi bir terminallarga to‘g‘ri keladigan to‘lov miqdorining dinamikasi aniq bir o‘shishni ko‘rsatadi.

<sup>20</sup> Statistik ma‘lumotlar asosida muallif ishlanmasi




**8-rasm. 2004-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasida mavjud bir terminalga to‘g‘ri keladigan to‘lov miqdori dinamikasi va bir plastik kartadan amalga oshirilgan to‘lov dinamikasi<sup>21</sup>**

2004 yilda bu miqdor 3,31 million so‘m bo‘lsa, 2024 yilda 766,52 million so‘mga yetgan. Bu raqamlar mobil to‘lovlar va elektron to‘lov tizimlarining o‘shishini, shuningdek, iqtisodiy va texnologik rivojlanishni aks ettiradi. Yuqorida tahlil qilingan ko‘rsatkichlar 2004-2024 yillar oralig‘ida plastik kartalar orqali amalga oshirilgan to‘lovlar dinamikasidagi o‘shish o‘rta hisobda 56 marotaba ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Bu, albatta, iqtisodiy o‘zgarishlar va texnologiyalar rivoji bilan bog‘liq.

Shu o‘rinda aholining elektron pul shaklidagi depozitlarining o‘zgarishi va uning rivojlanishi tahlilini olib borish lozim bo‘ladi.

2017 yilda aholining elektron pul shaklidagi depozitlari 22,935.42 milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich 84,287.08 milliard so‘mga etgan. Bu degani, 7 yilda (2017-2024) aholining elektron pul shaklidagi depozitlari 61,351.66 milliard so‘mga, ya‘ni 267% ga oshgan.




**9-rasm. Aholi banklardagi mablag‘larining o‘shish prognozi tahlili<sup>22</sup>**

<sup>21</sup> Statistik ma‘lumotlar asosida muallif ishlanmasi

<sup>22</sup> Statistik ma‘lumotlar asosida muallif ishlanmasi

2019 yilda aholi banklardagi mablag‘lari 304,238.8 milliard so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2029 yilda bu ko‘rsatkich 1,164,623.9 milliard so‘mga yetishi prognoz qilingan. Bu 10 yillik davrda banklardagi mablag‘lar 860,385.1 milliard so‘mga (yoki 283%ga) oshishi kutilmoqda. Bu holatga ko‘plab omillar ta‘sir qilishi mumkin.



**10-rasm. Elektron pullar orqali to‘lov o‘shish va yil davomida bir plastik karta orqali elektron to‘lov o‘shish prognozi, ming so‘m<sup>23</sup>**

Elektron pullar orqali to‘lovlarning o‘shish prognozi 2025 yildan 2029 yilgacha bo‘lgan davrda har yili taxminan 66,5% ga oshib bormoqda. Bu barqaror o‘shish sur‘atini ko‘rsatadi va elektron to‘lov tizimlarining jadal rivojlanayotganini anglatadi.


Berilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, 2024 yildan 2029 yilgacha bo‘lgan davrda bir plastik karta orqali elektron to‘lov hajmi (10-rasm) prognoz qilinmoqda. Ushbu prognozga ko‘ra, 2024 yildan 2029 yilgacha bo‘lgan davrda elektron to‘lovlar hajmi taxminan 3,33 baravar o‘shishi kutilmoqda. Bu o‘shish yiliga o‘rtacha 11,7% ni tashkil etadi. Shunday qilib, prognozga ko‘ra, elektron to‘lovlar hajmi 2024 yildan 2029 yilgacha bo‘lgan davrda sezilarli darajada o‘shishi kutilmoqda. Elektron to‘lovlarning o‘shish dinamikasiga bir necha omillar ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bu omillar iqtisodiy, texnologiyaviy va ijtimoiy shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘lib, ularning har biri o‘zgarishlarning asosiy sababchilaridan bo‘lishi mumkin:

Birinchidan, texnologik yangilanishlar muhim rol o‘ynaydi. Yangi, tezkor va xavfsiz to‘lov platformalarining paydo bo‘lishi, shuningdek, mobil telefonlar va akreditiv tizimlarining keng tarqalishi (masalan, Apple Pay, Google Pay) to‘lovlarning o‘shishini tezlashtiradi. Ikkinchidan, qurilmalar va ularning ma‘lumotlarni shifrlash va ishlash tizimlarining takomillashuvi elektron to‘lovlarni yanada oson va xavfsiz qiladi.

<sup>23</sup> Statistika ma‘lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Ikkinchi omil sifatida internet-savdoning o'sishini ko'rsatish mumkin. Internet orqali savdo qilishning ommalashishi elektron to'lovlarning o'sishini ta'minlaydi, chunki mijozlar kartalarni internetdagi tranzaksiyalar uchun ko'proq ishlatadilar. Shuningdek, iqtisodiy omillar ham muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy o'sish jismoniy va yuridik shaxslarning elektron to'lov vositalaridan foydalanishini oshiradi, bu esa to'lovlar sonining ortishiga olib keladi. Shaxsiy daromadlar va iqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlari ham elektron to'lov tizimlarining rivojlanishiga ta'sir qiladi.

O'zbekiston Respublikasida elektron to'lov tizimini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash elektron to'lovlarning xavfsizligini va ishonchliligini oshiradi. Bu esa elektron to'lovlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.




**11-rasm. Bir terminal orqali amalga oshirilgan bir kunlik o'rtacha to'lov o'sish prognozi, ming so'm<sup>24</sup>**

11-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yilda bir terminal orqali amalga oshirilgan bir kunlik o'rtacha to'lovning o'sish prognozi 2 950,25 ming so'mni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich korrelyatsion omillarga ko'ra 2029 yilda 11491,74 ming so'mni tashkil qilishi prognoz qilingan.

Dissertatsiya ishining navbatdagi **“Raqamli iqtisodiyot sharoitida pul barqarorligi tahlili va uni davlat tomonidan tartibga solish metodologiyasi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida so'ngi yillarda mamlakat pul-kredit siyosatida va raqamli iqtisodiyotda elektron pullarning to'lov vositasi sifatida tutgan o'rnini va ahamiyatiga baho berish hamda ularning prognoz ko'rsatkichlarini shakllantirish maqsadida raqamli iqtisodiyotda milliy valyuta barqarorligini ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirishning metodologiyasini taklif qildik va bunda asosiy e'tiborni raqamlashtirish jarayonlariga qaratishni lozim deb topdik.

<sup>24</sup> Statistika ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi




**12-rasm. Raqamli iqtisodiyotda milliy valyuta barqarorligini ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish" metodologiyasi va tavsifi<sup>25</sup>.**

Metodologiyada davlatning valyutani nazorat qilish va barqarorligini ta'minlashga qaratilgan monetar siyosat vositalari, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, to'lov tizimlarini tartibga solish, hamda doimiy monitoring va tahlil

<sup>25</sup> Ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida muallif ishlanmasi

tizimlarini takomillashtirish yo‘llari o‘rganiladi. Chunki zamonaviy sharoitda ushbu metodologiya quyidagi mexanizmning ishlashiga yordam beradi.



### 13-rasm. Raqamli iqtisodiyotda milliy valyuta barqarorligini ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish" mexanizmi<sup>26</sup>

Raqamli iqtisodiyotning tez rivojlanishi va moliyaviy texnologiyalar (fintex, kriptovalyuta, blokcheyn) kengayishi milliy valyutaning qimmatini saqlashda yangi muammolar va tahdidlarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli davlat uchun valyutani barqarorlashtirishda an'anaviy vositalarni raqamli iqtisodiyotga moslashtirish, yangi mexanizmlar va huquqiy bazani yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mexanizmning ishlashini quyidagi formulalar asosida kuzatish mumkin.

<sup>26</sup> Ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida muallif ishlanmasi

**Mexanizmni qo‘llab-quvvatlovchi formulalar yig‘indisi<sup>27</sup>**

<b>№</b>	<b>Asosiy formulalar nomi</b>	<b>formula</b>	<b>Oxirgi natija</b>
1.	Elektron to‘lov tizimlari faoliyatini tartibga solish	$R_t=f(L_t, N_t, C_t)$	$B_t=F(R_t, M_t, S_{x_t}, K_t, Sh_t)$
2.	Elektron pul operatsiyalarining monitoringi va tahlili	$M_t=g(D_t, A_t, S_t)$	
3	Iqtisodiy-matematik modellashtirish	$V_t=\alpha_0+\alpha_1P_t+\alpha_2E_t+\alpha_3I_t+\varepsilon_t$	
4.	Raqamli moliyaviy savodxonlikni oshirish	$S_{x_t}=h(Ef_t, Tr_t, Ac_t)$	
5.	Kiberxavfsizlik va shaffoflik	$K_t=m(\text{Sec}_t, R_t, Up_t)$ $Sh_t=n(Tr_t, R_t, R_{v_t})$	

Bu yerda F-barcha mexanizmlar samaradorligini birlashtiruvchi funktsiya hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotda milliy valyuta barqarorligini ta‘minlashni davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish metodologiyasi — bu raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy valyutaning barqarorligini ta‘minlash uchun davlat tomonidan amalga oshiriladigan tartibga solish chora-tadbirlarini tizimli va ilmiy asosda takomillashtirishni ko‘zda tutadigan metodologik yondashuvdir.

Biz dissertatsiya ishida yuqorida keltirilgan tahliliy materiallarga asoslangan holda bir-biriga bog‘langan tenglamalar tizimiga asoslangan eng oddiy bashoratlash ekonometrik modellaridan birini qo‘llashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu ekonometrik modelda natijaviy ko‘rsatkichlar miqdori ularga ta‘sir etuvchi omillar bo‘yicha tegishli tenglamalar yordamida aniqlab chiqiladi. Keltirilayotgan ta‘sir etuvchi omillar odatda tasodifiy xarakterga ega bo‘lganligi sababli aniqlashning keng tarqalgan usullardan biri korrelyatsion-regression usuldan iborat bulib, bu usul omillar va natijaviy ko‘rsatkichlar orasidagi bog‘lanishlarni o‘lchash hamda ulardan birining miqdoriy o‘zgarishi boshqalariga qanday ta‘sir etish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Korrelyatsion-regression tahlil yordamida omilli va natijaviy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘lashnni ifodalovchi regresiya tenglamasi aniqlanib va uni ma‘lum darajada ehtimollik xususiyatga ega bo‘lgan bog‘lanish zichligini (aniqlangan tenglamani ishonchlilik darajasi) aniqlash bilan baholash orqali amalga oshiriladi.

Boshqacha qilib aytganda, tadqiqot qilishi lozim bo‘lgan ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘lovchi va ular orasidagi bog‘lanishlarni ifodalovchi kattaliklarni o‘z ichiga olgan matematik munosabatlarni keltirib chiqarish va ularni tahlil etish shu usulning mohiyatini tashkil etadi.

<sup>27</sup> Ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida muallif ishlanmasi

Ko'riladigan masalalarning asosiy matematik apparatini matematik statistika, korrelyatsion va regression tahlillar tashkil etadi. Korrelyatsion-regression tahlil usullari biz uchun asosan quyidagicha uchta masalani yechish imkonini beradi:

- natijaviy ko'rsatkich va omilli ko'rsatkichlar o'rtasida bog'lanish ko'rinishini aniqlash;

- ular o'rtasidagi bog'lanish darajasini aniqlash;

- hamda har bir omilli ko'rsatkich ta'sir darajasini aniqlash.

Dissertatsiya ishida tahliliy materiallardan kelib chiqqan holda elektron pul shaklidagi depozitlar, elektron pullardan to'lov vositasi sifatida foydalanish darajasini belgilab beruvchi natijaviy ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillarni ta'sir darajasini o'rgandik.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, omillarni natijaviy ko'rsatkichlarga ta'sir darajasi Pirsonning korrelyatsiya koeffitsienti orqali ifoda etiladi. Korrelyatsiya koeffitsienti ( $R_{xy}$ ) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$R_{xy} = \frac{(\overline{x * y} - \bar{x} * \bar{y})}{(\sigma_x * \sigma_y)}$$

Bu yerda:

$\overline{x * y}$  – kuzatilgan omil ko'rsatkich ( $x$ ) bilan natijaviy ( $y$ ) ko'rsatkichlarning ko'paytirish natijasining ehtimoliy kutilish miqdori;

$\bar{x}$  – kuzatilgan omil ko'rsatkichning ehtimoliy kutilish miqdori;

$\bar{y}$  – kuzatilgan natijaviy ko'rsatkichlarning ehtimoliy kutilish miqdori;

$\sigma_x$  – omil ko'rsatkichning o'rtacha kvadratik chetlanish miqdori;

$\sigma_y$  – natijaviy ko'rsatkichning o'rtacha kvadratik chetlanish miqdori.

Ma'lumki, Pirson korrelyatsiya koeffitsientining hisoblangan miqdori ( $-1 < R_{xy} < 1$ ) oraliq'ida joylashgan bo'lib uning manfiy miqdori omil ko'rsatkich bilan natijaviy ko'rsatkich o'rtasida teskari bog'lanish mavjudligini va musbat miqdori omil ko'rsatkich bilan natijaviy ko'rsatkich o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'lanish mavjudligini ifodalaydi. Korrelyatsi koeffitsienti miqdorining  $R_{xy} \rightarrow 0$  yaqinligi omil ko'rsatkich bilan natijaviy ko'rsatkich o'rtasida bog'liklik darajasi sust ekanligini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasida elektron pul muomalasi (depozitlar, to'lov va bosh.) va unga ta'sir etuvchi omillarni ta'sirini korrelyatsiya- regressiya tahlili asosida o'rganish hisob-kitoblari dissertatsiya ishining 2-ilovasida, natijalari esa ushbu keltirilgan 3-jadvalda aks ettirilgan.

Birinchi bosqichda mamlakat aholisining tijorat banklarida mablag'lari hajmi (omil ko'rsatkich) bilan aholi mablag'lari tarkibida elektron pullar hajmi (natijaviy ko'rsatkich) o'rtasida bog'liqlikni o'rgandik. Jadval ma'lumotlarini kuzatsak, bu ikki ko'rsatkich bog'liqlik zichligini ifoda etadigan Pirson korrelyatsiya koeffitsienti

Mamlakatda elektron pullar muomalasiga ta'sir etuvchi omillarning korrelyatsiya-regressiya tahlili<sup>28</sup>

T/r	Omili ko'rsatkichlar	Natijaviy ko'rsatkichlar	Pirson korrelyatsiy a koeffitsienti, $R_{xy}$	Funksional bog'liklik tenglamasi, $Y_x$
1	Aholi banklarda mablag'lari, mlrd.so'm	Aholi mablag'larida elektron pullar, mlrd.so'm	0,9598	$Y_x = 9786,9 + 0,318x$
2	Aholining elektron pul shaklidagi depozitlari yillik o'rtacha qoldig'i, mlrd.so'm	Elektron pullar orqali to'lov summalari, mlrd.sum	0,9355	$Y_x = -54631 + 3,77x$
3	To'lov terminallari soni		0,803	$Y_x = -25045 + 0,437x$
4	Plastik kartalar sonining o'sish dinamikasi, foiz	Elektron pullar orqali to'lov o'sish dinamikasi, foiz	0,8315	$Y_x = 47,017 + 6,44x$

( $R_{xy} = 0,9598$ ) bu ko'rsatkichlar o'rtasida bog'liqlikning zichlik darajasi yuqori ekanligini anglatadi. bu ikkala ko'rsatkich o'rtasidagi funksional bog'liklik tenglamasi

$$(Y_x = 9786,9 + 0,318x) \text{ ko'rinishga ega.}$$

Navbatdagi bosqichda uchta bir omili ko'rsatkichlar aholining elektron pul shaklidagi depozitlari yillik o'rtacha qoldig'i hajmining, aholida mavjud plastik kartalar sonining hamda mamlakatda tijorat banklari tomonidan savdo jarayonlari uchun taqdim etilgan to'lov terminallari sonining elektron pullar orqali to'lov hajmiga ta'siri o'rganildi.

Jadval ma'lumotlarini kuzatsak, aholining elektron pul shaklidagi depozitlari yillik o'rtacha qoldig'i hajmi bilan elektron pullar orqali to'lov hajmi o'rtasida bog'liqlik zichligini ifoda etadigan Pirson korrelyatsiya koeffitsienti ( $R_{xy} = 0,9355$ ) bu ko'rsatkichlar o'rtasida bog'liqlikning zichlik darajasi yuqori ekanligini anglatib ikkala ko'rsatkich o'rtasidagi funksional bog'liqlik regressiya tenglamasi

$$(Y_x = -54631 + 3,77x) \text{ ko'rinishga ega.}$$

Yana bir omili ko'rsatkich aholida mavjud plastik kartalar sonining elektron pullar orqali to'lov hajmiga ta'sir etish kuchini ifodalovchi Pirson korrelyatsiya koeffitsienti ( $R_{xy} = 0,9686$ ) bo'lib bu ko'rsatkichlar o'rtasida bog'liqlikning zichlik darajasi yuqori ekanligini anglatib turibdi. Bu ikkala ko'rsatkich o'rtasidagi funksional bog'liqlikni ifodalovchi regressiya tenglamasi

$$(Y_x = -39721 + 6,05x) \text{ ko'rinishga ega.}$$

<sup>28</sup> Statistika ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Elektron pullar orqali to'lov hajmiga ta'sir etuvchi yana bir omilli ko'rsatkich tijorat banklari tomonidan to'lov operatsiyalarini amalag oshirish uchun o'rnatilgan to'lov terminallari sonining ta'sir zichligini ifodalovchi Pirson korrelyatsiya koeffitsienti ( $R_{xy} = 0,803$ ) bo'lib bo' ko'rsatkichlar o'rtasida funksional bog'liklik darajasi yetarli darajada yuqori ekanligini anglatadi, funksional bog'liklik regressiya tenglamasini ko'rinishi


$$(Y_x = -25045 + 0,437x).$$

Tadqiqotlarimizdan o'rin olgan yana bir omilli ko'rsatkich mamlakat aholisi ixtiyorida bo'lgan plastik kartalar sonining o'sish dinamikasini elektron pullar orqali to'lov o'sish dinamikasiga ta'sini o'rganganimizda Pirson korrelyatsiya koeffitsienti ( $R_{xy} = 0,8315$ ) bo'lib bu ko'rsatkichlar o'rtasida funksional bog'liklik zichligi yuqori ekanligini ko'rsatib ular o'rtasidagi funksional bog'liklik tenglamasi

$$(Y_x = 47,017 + 6,44x) \text{ ko'rinishga ega.}$$

Navabtdagi bosqichda dissertatsiya oldidagi maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda keltirilgan regressiya tenglamalari hamda tahliliy matriallarda asoslangan prognoz ko'rsatkichlar asosida omil ko'rsatkichlarning ta'sirida natijaviy ko'rsatkichlar o'zgarish dinamikasini ko'ramiz.

Quyida keltirilgan 14-rasmda mamlakat aholisining tijorat banklardagi mablag'lari o'sishining aholi elektron pullari hajmiga ta'siri diagrammasi keltirilgan.




**14-rasm. Aholining banklardagi mablag'lari o'sishining aholi elektron pullari hajmiga ta'siri diagrammasi<sup>29</sup>**

2025 yilda aholining tijorat banklaridagi depozitlari hajmlari 345858,1 mlrd.so'm prognoz qilingan bo'lsa shundan 119608,7 mlrd.so'm elektron pullarni tashkil etmoqda, shu bilan birga 2029 yilga kelib aholi depozitlarida elektron pullar hajmi 337105,2 mlrd.so'm bo'lishi prognoz qilinmoqda. Navbatdagi 15-rasmda yuqorida keltirilgan jadvalning 2 bandidagi regressiya tenglamasi asosida mamlakat aholisiga tegishli bo'lgan elektron pullar hajmi prognozining elektron pullar


<sup>29</sup> Statistik ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

aylanmasiga ta'siri asosida shakllantrilgan diagramma keltirilgan. 2025 yilda aholining elektron pullari hamjlari 100119,2 mlrd.so'm prognoz qilinayotgan hamda elektron pullar orqali to'lov hajmlari 322525,6 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa 2029 yilga kelib elektron pullarni hajmi prognozi 233624 mlrd.so'm tashkil etib, o'z navbatida elektron pullar orqali to'lov hajmi prognozi 825448,4 mlrd.so'mni tashkil etmoqda.



**15-rasm. Aholida mavjud elektron pullar hajmining elektron pullar orqali to'lov hajmiga ta'siri diagrammasi<sup>30</sup>**

Navbatdagi bosqichda 16-rasmda tijorat banklari tomonidan muomalaga yo'naltirilgan to'lov terminallari sonining elektron pullar orqali to'lov hajmiga ta'siri o'rganib chiqildi.




**16-rasm. To'lov terminallari sonining elektron pullar orqali to'lov hajmiga ta'siri dinamikasi<sup>31</sup>**

Keltirilgan diagrammani (16-rasm) kuzatar ekanmiz ta'kidlab o'tish joizki, tijorat banklari tomonidan savdo amaliyotini o'tkazish uchun taqdim etiladigan terminallar sonini 600 ming dona yetkazilsa, elektron pullar orqali to'lov hajmi

<sup>30</sup> Statistik ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

<sup>31</sup> Statistik ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

qariyib 240000 mlrd.so‘mni tashkil yetishi mumkin. Ammo, shuni ta’kidlash lozimki, iqtisodiyotda to‘lov terminallari sonining o‘shishi elektron pullar aylanmasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatsada, buni faqat to‘lov terminallari soniga bog‘lab qarashlik to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bu yerda boshqa omillar ta’sirini ham inobatga olish lozim bo‘ladi.



**17-rasm. Plastik kartochkalar o‘shish dinamikasining elektron pullar orqali to‘lov dinamikasiga ta’siri diagrammasi<sup>32</sup>.**

17-rasmda keltirilgan mamlakatda to‘lov vositasi sifatida plastik kartochkalar o‘shish dinamikasining elektron pullar orqali to‘lov dinamikasiga ta’sirini kuzatar ekanmiz quyidagi holatlarni ta’kidlab o‘tish lozim. Plastik kartochkalarni sonini 1 foizga o‘stirsak mamlakatda elektron pullar orqali to‘lov hajmlarini 42,7 foizga o‘stirilishi mumkin, o‘z navbatida plastik kartochkalar sonini 15 foizga o‘stirish elektron pullar orqali to‘lov hajmini 9 foizga (51,7-42,7) o‘stirish imkonini beradi holos. Shu o‘rinda biz yuqorida keltirilgan tadqiqotlarimizda ta’kidlab o‘tgan edikki, 2024 yil yakunida mamlakatimizda mavjud aholining umumiy soni 37 543,2 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa emissiya qilingan plastik kartochkalar soni 53 516 ming donani tashkil etgan. Aniqrog‘i kattayu-kichik aholidan (ishlaydigan, ishlaymaydigan) bir kishiga qariyib 1,5 dona yoki boshqacha qilib aytganda 10 ta aholiga 15 dona plastik kartochka to‘g‘ri kelmoqda.

Bu holatdan xulosa qilib o‘tish lozimki, plastik kartalar sonining oshishi elektron pullar orqali to‘lov hajmiga yuqori darajada ta’sir etmaydi, shu bois tijorat banklari tomonidan emissiya qilingan plastik kartalar sonini optimallashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

## XULOSA

1. Zamonaviy iqtisodiyotda pulning evolyusion rivojlanishi va o‘zgarishlarni boshqarish, ayniqsa, elektron pullarning joriy etilishi iqtisodiy tizimning yanada samarali va barqaror ishlashini ta’minlaydi. Elektron pullar, o‘z navbatida, milliy valyutaning barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular nafaqat iqtisodiy operatsiyalarni soddalashtiradi, balki moliyaviy tizimning shaffofligini va ishonchliligini oshiradi.

<sup>32</sup> Statistika ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

2. Aholi ixtiyoridagi pul mablag'larining o'sish dinamikasi va elektron pullar ulushining oshishi, iqtisodiy rivojlanish va moliyaviy tizimning modernizatsiyasini aks ettiradi. Aholi mablag'larining tarkibidagi muddatli depozitlar va elektron pullar ulushining o'zgarishi, elektron to'lov tizimlarining rivojlanishini va aholining elektron pul shaklidagi depozitlarga bo'lgan ishonchining oshishini ko'rsatadi. Bu tendensiya, nafaqat iqtisodiyotning shaffofligini, balki aholi tomonidan elektron to'lov tizimlariga bo'lgan talabning kuchayishini ham anglatadi.

3. 2030 yilga borib aholi tomonidan tijorat banklarida saqlanayotgan elektron pul shaklidagi talab qilib olgunga qadar depozitlar miqdori sezilarli darajada oshishi kutilmoqda. Aholining talab qilib olgunga qadar depozitlari o'rtacha yillik qoldig'ining 233623,97mlrd. so'm bo'lishi, elektron to'lov tizimlariga bo'lgan talabning ortishini va ularning iqtisodiyotda muhim o'rin egallashini ko'rsatadi. Shuningdek, elektron to'lovlarning 825448,4 mlrd. so'mga yetishi, aholi va biznes subektlarining elektron to'lov tizimlariga bo'lgan ishonchini tasdiqlaydi.

4. Aholining tijorat banklarida talab qilib olgunga qadar saqlanayotgan depozitlar miqdorining oshib borayotganligi, moliyaviy tizimning yanada raqamlashtirilgan va shaffof bo'lishiga olib kelishi kutilmoqda. Bir oy muddatga saqlangan talab qilib olgunga qadar bo'lgan depozitlarga 1,1 oylik foiz (13,2 yillik) to'lovlarini taqdim etish, aholi uchun qo'shimcha daromad manbai bo'lib, banklarga depozitlarni saqlashda rag'bat yaratadi va shu orqali banklar va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga turtki beradi

5. Aholining elektron pullar orqali hisob-kitob jarayonlarining oshib borishi va plastik kartalar sonining ko'payishi fuqarolarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashni yanada muhimlashtiradi. Yuqori darajadagi himoya vositalariga ega bo'lgan plastik kartalarni joriy etish orqali fuqarolarning elektron mablag'lari xavfsizligini oshirish, shuningdek, bank tizimi orqali amalga oshirilayotgan hisob-kitoblar jarayonlarining ishonchliligini ta'minlash mumkin.

6. Yangi texnologiyalar va elektron pullarning mavjudligi bilan bog'liq huquqiy xavflar huddi moliyaviy xavflar singari yuzaga keladi, chunki bu tizimlar hukumat va tartibga soluvchilar tomonidan belgilangan qoidalarga rioya qilishni talab etadi. Umuman olganda, elektron pullar tizimining xavfsizligi va ishonchliligi uchun barcha bu xavf turlari e'tiborga olinishi zarur, chunki ular moliyaviy va operatsion barqarorlikni ta'minlashda katta rol o'ynaydi.

7. Fuqarolarning talab qilib olgunga qadar bo'lgan depozitlari uchun moddiy rag'batlantirish choralari, masalan, foiz to'lovlarini amalga oshirish, ularning moliyaviy faolligini oshirishga yordam beradi. Umuman olganda, yuqori darajadagi himoya vositalariga ega bo'lgan multibank plastik kartalarini joriy etish, elektron to'lovlar xavfsizligini ta'minlash va fuqarolarning moliyaviy himoyasini kuchaytirish orqali iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini yanada rivojlantirish mumkin.

8. Markaziy bankning samarali pul-kredit siyosati va valyuta ayirboshlash operatsiyalarini soddalashtirish, elektron to'lov tizimlarining ishonchliligi va samaradorligini oshiradi. Valyuta bozoridagi raqobatni oshirish va yangi valyuta

operatsiyalarini joriy etish, shuningdek, davlatning elektron to'lovlar infratuzilmasini rivojlantirish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, axborot xavfsizligini ta'minlash orqali elektron pul tizimining ishonchliligi yanada oshadi.

9. Zamonaviy iqtisodiyotda emissiya mexanizmlarining raqamlashtirilishi va davlat tizimiga integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Elektron pullar va elektron to'lov tizimlari ishlab chiqarish va pul muomalasini tezlashtiradi, shu bilan birga davlatlar ushbu jarayonlarni tartibga solish uchun qonuniy va amaliy qoidalarni belgilashda mas'uldir. Elektron pul tizimlari moliyaviy nazoratni kuchaytirib, moliyaviy faoliyatni yanada xavfsiz va samarali boshqarish imkonini yaratadi.

10. Elektron pullarning o'sishi va rivojlanishi iqtisodiyotning samaradorligini oshiradi, shaffoflikni ta'minlaydi va moliyaviy tizimda yangilanishlarni yuzaga keltiradi. Bu nafaqat noqonuniy iqtisodiyotning kamayishiga, balki bank tizimining rivojlanishiga, inflyatsiyaning pasayishiga, qonuniy bitimlarning ko'payishiga va raqamli iqtisodiyotning tez rivojlanishiga olib keladi. Shu bilan birga, elektron to'lov tizimlarining kengayishi iqtisodiy tizimning yanada barqaror va xavfsiz bo'lishini ta'minlaydi, bu esa umuman mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ по ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ  
СТЕПЕНЕЙ DSc.13/30.12.2019.Т.07.02 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**  

---

**АКАДЕМИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ И УПРАВЛЕНИЯ  
ПРИ ПРЕЗИДЕНТЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ИСМОИЛОВА ГУЛНОРА ФАЙЗУЛЛАЕВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ  
ОСНОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ  
СТАБИЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ВАЛЮТЫ В УСЛОВИЯХ  
ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ**

**08.00.16 – Цифровая экономика и международная цифровая интеграция**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
**диссертации доктора экономических наук (DSc)**

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора экономических наук (DSc) зарегистрирована в ВАК при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.2.DSc/Iqt901.**

Диссертация была выполнена в Академия Государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета ([www.tuit.uz](http://www.tuit.uz)) и на информационно-образовательном портале “Ziyonet” ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный консультант:** **Махкамов Бахтиёр Шухратович**  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Нурислон Тухлиев**  
доктор экономических наук, академик  
**Тошматов Шухрат Аманович**  
доктор экономических наук, профессор

**Назаркулов Умиджан Рахимджанович**  
доктор экономических наук, доцент

**Ведущая организация:** **Самаркандский институт экономики и сервиса**

Защита диссертации состоится 18 октября 2025 года в 14.00 часов на заседании научного совета DSc.13/30.12.2019.T.07.02 по присуждению ученых степеней при Ташкентском университете информационных технологий. Адрес: 100084, г.Ташкент, проспект Амира Темура, дом 108. Тел.: (99871) 238-64-15; e-mail: [info@tuit.uz](mailto:info@tuit.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского университета информационных технологий (зарегистрировано за № 373). Адрес: 100084, г.Ташкент, проспект Амира Темура, 108. Тел.: (99871) 238-64-15.

Автореферат диссертации распространен 8 октября 2025 года (протокол реестра рассылки №\_6 от 8 октября 2025 года).

**Ш.Ш.Тураев**  
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор.

**Э.Ш.Назирова**  
ученый секретарь разового научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор.

**Ш.Дж.Эргашходжаева**  
Председатель научного семинара при совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор.

## ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора наук (DSc))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Рост электронных платежей в мировой экономике свидетельствует об увеличении доли электронных денег. Ожидается, что к 2027 году объем мирового рынка онлайн-платежей в мировой экономике достигнет 17 643,35 млрд долларов США, а среднегодовой темп роста (CAGR) составит 20,8%<sup>33</sup>. Значительный рост наблюдается и в развитых странах, что связано с ростом использования электронных способов оплаты и развитием мобильных платежных сервисов. Сегодня компании и банки цифровизируют свои услуги и предоставляют клиентам удобные и безопасные способы оплаты.

В целях обеспечения стабильности национальных валют во многих странах мира широко изучается влияние электронных денег и электронных платёжных систем на экономику. Электронные платёжные инструменты и мобильные приложения способствуют росту экономической активности. Они упрощают ежедневные финансовые операции и предоставляют быстрые и безопасные услуги. При этом, несмотря на сокращение использования наличных денег, они по-прежнему остаются актуальными, а в некоторых случаях объём наличных денег демонстрирует тенденцию к увеличению. Этот процесс зависит от доверия населения и развития цифровой инфраструктуры. Баланс наличных и электронных платежей формируется в каждой стране по-своему. Экономические, социальные и технологические факторы напрямую влияют на этот процесс. Правильная оценка этих изменений важна для национальной политики. Расширение электронных платежей напрямую влияет на стабильность валютного курса. Поэтому в этом направлении проводятся научные и прикладные исследования.

Актуальность исследования также подтверждает, что глобализация цифровизации экономики в Узбекистане является одним из основных приоритетов государства, обеспечивая устойчивость национальной валюты, определяя этапы ее развития, становление электронных денег и пути их развития. Разработка современной стратегии государственной поддержки в обеспечении устойчивости национальной валюты включает комплекс взаимосвязанных задач. Поставлены задачи «удвоить объем экономики к 2030 году и войти в число стран с доходом выше среднего, ... обеспечить годовую инфляцию на уровне 5-6 процентов к 2030 году путем координации денежно-кредитной, налогово-бюджетной и внешнеторговой политики, продолжения структурных реформ, направленных на улучшение конкурентной среды на рынке товаров и услуг»<sup>34</sup>. В связи с этим целесообразно уделить особое внимание исследованиям, направленным на разработку эффективных

---

<sup>33</sup> [eportlinker.com/market-report/Payments/517859/Payments?term=payments%20market&matchtype=p&loc\\_interest=&loc\\_physical=9211610&utm\\_group=standard&utm\\_term=payments%20market&utm\\_campaign=ppc&utm\\_source=google\\_ads&utm\\_medium=paid\\_ads&utm\\_content=transactionnel-1&gad\\_source=1&gclid=CjwKCAiAw5W-BhAhEiwApv4goH7qfgRS\\_MNyljCK6UHGHfa7udabwM-1Q6RqqqJCWxyRZuzCpRg7XR0COU0QAvD\\_BwE](https://eportlinker.com/market-report/Payments/517859/Payments?term=payments%20market&matchtype=p&loc_interest=&loc_physical=9211610&utm_group=standard&utm_term=payments%20market&utm_campaign=ppc&utm_source=google_ads&utm_medium=paid_ads&utm_content=transactionnel-1&gad_source=1&gclid=CjwKCAiAw5W-BhAhEiwApv4goH7qfgRS_MNyljCK6UHGHfa7udabwM-1Q6RqqqJCWxyRZuzCpRg7XR0COU0QAvD_BwE)

<sup>34</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 11.09.2023 г. № УФ-158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030»

механизмов рационального управления денежными средствами в экономике, снижения инфляционного давления посредством кредитования и политики ставок, обеспечения стабильности национальной валюты в условиях цифровой экономики.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени способствует в реализации задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», № УП - 158 от 11 сентября 2023 года «О Стратегии «Узбекистан — 2030», № УФ-5877 от 8 ноября 2019 года «О совершенствовании денежно-кредитной политики путем поэтапного перехода к режиму таргетирования инфляции», №УП-5992 от 12 мая 2020 года «О Стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020-2025 годы», №УП-6079 от 5 октября 2020 года «О Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030», в Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-3832 от 3 июля 2018 года «О мерах по развитию цифровой экономики и сферы оборота криптоактивов в Республике Узбекистан», а также в других нормативно-правовых актах, имеющие отношение данному исследованию.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно - этическое и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации**<sup>35</sup>. Вопросы совершенствования методологии государственной поддержки устойчивости валюты страны в условиях цифровой экономики изучаются ведущими научными центрами и высшими учебными заведениями мира, среди которых Институт экономического развития, Гарвардский университет, Нью-Йоркский университет, Чикагский университет (США), Всемирный банк, Оксфордский университет, Лондонская школа экономики, Организация экономического сотрудничества и развития (ОЭСР) (Франция), Университет Васэда (Япония), Мюнхенский университет Людвига-Максимилиана (Германия); Российский экономический университет им. Г.В. Плеханова, Дагестанский государственный университет, Московский государственный университет (Россия); Институт прогнозирования и макроэкономических исследований, Ташкентский государственный экономический университет, Ташкентский университет информационных технологий и Академия государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан (Узбекистан).

---

